
ALIMENT TO'LOVCHILARNING CHET ELGA CHIQISHIGA OID TAQIQNI OLIB TASHLASH TARTIBI QANDAY?



SAVOL: Aliment to'lovchilarning chet elga chiqishiga oid taqiqni olib tashlash tartibi qanday?

JAVOB: Davlat ijrochisi qarori asosida aliment to'lovchilarning xorijga chiqishi vaqtincha cheklanishi mumkin.

Alimentlar oldindan to'langan yoki bu bo'yicha garov shartnomasi tuzilgan bo'lsa xorijga chiqishga oid cheklov olib tashlanadi.

Alimentlarni oldindan to'lash 5 yildan kam bo'lmagan muddatga amalga oshirilishi kerak.

Bolalar voyaga yetgunigacha bo'lgan davr 5 yildan kam bo'lsa, alimentlarni oldindan to'lash qolgan davr uchun amalga oshiriladi.

Alimentni to'lashni garov bilan ta'minlash uchun ariza sudga taqdim qilinadi.

Garov qiymati BHMning 250 baravaridan (75 mln. so'mdan) kam bo'lmasligi lozim.

Har qanday mol-mulk (avtomobil, do'kon, uy-joy, kvartira) garov bo'lishi mumkin.

Bosh prokuratura boshqarma katta prokurori I.Saidkulov

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-10-05 10:05:52